

# O'ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

III RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY  
KONFERENSIYA MATERIALLARI

IYUL, 2025-YIL



**KONFERENSIYALAR.UZ**

ANJUMANLAR PLATFORMASI

# O'ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

**III RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY  
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, iyul

**TOSHKENT-2025**

**ISBN 978-9910-09-222-0**

**O'ZBEKISTON - 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI.** III Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 49 bet.

**Elektron nashr:** <https://konferensiyalar.uz>

**Konferensiya tashkilotchisi:** "Scienceproblems Team" MChJ

**Konferensiya o'tkazilgan sana:** 2025-yil, 10-iyul

**Mas'ul muharrir:**

Isanova Feruza Tulqinovna

**Annotatsiya**

Mazkur nashrda "O'zbekiston — 2030: innovatsiya, fan va ta'lism istiqbollari" nomli I Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi doirasida taqdim etilgan ilmiy maqolalar to'plami jamlangan. Unda O'zbekistonning turli oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, tarmoq tashkilotlari, mustaqil tadqiqotchilar tomonidan taqdim etilgan ijtimoiy-gumanitar, iqtisodiyot, huquq, biologiya, tibbiyot va boshqa sohalarga oid maqolalar kiritilgan. Maqolalarda ilm-fanning zamonaviy yo'nalishlari, innovatsion texnologiyalar, ta'lim islohotlari hamda barqaror taraqqiyotga oid masalalar muhokama qilingan. To'plam akademik izlanishlar, amaliy tajribalar va ilmiy xulosalarni birlashtirgan holda, fanlararo integratsiyani chuqurlashtirish va ilmiy hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsiya, fan va ta'lism, O'zbekiston 2030, barqaror rivojlanish, ilmiy izlanishlar, fanlararo integratsiya, ilmiy hamkorlik, texnologik taraqqiyot, zamonaviy ta'lism.

**ISBN 978-9910-09-222-0**

**Barcha huqlar himoyalangan.**

© Scienceproblems team, 2025-yil

© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

## MUNDARIJA

### TEXNIKA FANLARI

*G`ulomov Ibrohim*

MANG`IT NA'MOYONIDAN OLINGAN NIOBIY VA TANTAL SAQLAGAN MA'DANLARNI  
BOYITISH..... 4-10

### TARIX FANLARI

*Xolova Umida, Jalolova Zarina*

MA'RIFATPARVARLIK RUHI VA AYOL OBRAZINING YUKSALISHI: DILSHODI BARNO  
NIGOHIDA ..... 11-14

*Sobirov Sardorbek*

YETTISHAHAR DAVLATI ASOSCHISI YOQUBBEK BADAVLAT FAOLIYATIGA  
BIR NAZAR..... 15-19

### FALSAFA FANLARI

*Mamadiyarova Malika*

OILAVIY QADRIYATLARNING AXLOQIY XUSUSIYATI ..... 20-22

### FILOLOGIYA FANLARI

*Xudoynazarova O'g'lonoy*

TIBBIY DISKURSDA DINIY BARQAROR BIRIKMALAR ..... 23-25

*Abdukaxarova Gulnoza*

O'ZBEK TILIDA IQTISODIY ANGLISIZMLARNING SHAKLLANISHIGA TA'SIR  
ETUVCHI OMILLAR ..... 26-28

Mustafayev Ozod

O'ZBEKİSTONDA "RAQAMLI (INTERAKTIV) ADABIYOT" MUHİTİNİNG SHAKLLANISHI VA  
ADABIY ASARLARNING ONLAYN PLATFÖRMALARDAGI EVOLUTSIYASI ..... 29-32

### YURIDIK FANLARI

*Allambergenova Farida*

ISTE'MOLCHI HUQUQLARINI HIMoya QILISHDA ROMAN-GERMAN VA ANGLO-SAKSON  
HUQUQIY TİZİMLARIDAGI O'ZİGA XOS XUSUSIYATLAR ..... 33-40

### PEDAGOGIKA FANLARI

*Rasulov Erkin*

KOGNİTİV HAMDA METAKOGNİTİV FAOLIYATLAR O'RTASIDAGI BOG'LİQLIK VA ULARNI  
RIVOJLANTIRISH USULLARI ..... 41-45

### PSIXOLOGIYA FANLARI

*Smetova Gulzar*

TIBBIYOT XODIMI FAOLIYATIDA PSIXOLOGİK BİLİMLARNING AHAMIYATI..... 46-48

## TARIX FANLARI

### MA'RIFATPARVARLIK RUHI VA AYOL OBRAZINING YUKSALISHI: DILSHODI BARNO NIGOHIDA.

#### Xolova Umida Umedovna

Islom tarixi va manbashunosligi, falsafa kafedrasi o'qituvchisi.

#### Jalolova Zarina Shuxratovna

Buxoro Davlat universiteti Tarix va Yuridik fakulteti tarix yo'nalishi 1-kurs talabasi.

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Dilshodi Barnoning jamiyatni isloh qilishiga oid qarashlari tahlil qilinadi. Dilshodi Barnoning hayoti va asarlari tahlili, ijtimoiy o'zgarishlar haqida qarashlari va fikrlari, o'sha davr ayollarining ilm olishlari uchun harakatlari, taklif qilgan islohotlari va ularning dolzarbliги ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** Dilshodi Baro, ma'rifatparvarlik, ta'lim tizimi, Haftiyak, Chorkitob, Istrafshan, Mir Mushoq mahallasi, Ho'ja Qo'qon, ma'rifat, Chorkitob, maktabdor.

### THE SPIRIT OF ENLIGHTENMENT AND THE RISE OF THE FEMALE IMAGE: THROUGH THE EYES OF DILSHODI BARNO.

#### Kholova Umida Umedovna

Teacher of the Department of Islamic History and Source Studies, Philosophy.

#### Jalolova Zarina Shukhratovna

1st year student of the History Department of the Faculty of History and Law of Bukhara State University.

**Annotation.** This article analyzes Dilshodi Baro's views on social reform. It examines his life and works, his perspectives on social changes, and his thoughts on the role women in education during his time. The article also discusses his proposed reforms and their relevance today.

**Key words:** Dilshodi Baro, enlightenment, education system, Haftiyak, Chorkitob, Istravshan, Mir Mushoq neighborhood, Khoja Kokand, enlightenment (again), Chorkitob, schoolteacher.

**DOI:** <https://doi.org/10.47390/978-9910-09-222-0/uzb-02.1>

Ayollar ta'limi har qanday jamiyatning taraqqiyoti va ma'naviy yuksalishida muhim omillardan biri sanaladi. Ayniqsa, XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Turkiston mintaqasida jadid ma'rifatparvarlari tomonidan ayollarni savodli qilish, ularning ijtimoiy hayotdagagi ishtirokini oshirish masalalari dolzarb mavzulardan biri bo'lib chiqqan. Bu davrda ilg'or fikrli ziyorilar, xususan, ayol ma'rifatchilar ham o'z ijodiy va amaliy faoliyati orqali bu masalaga alohida e'tibor qaratganlar.

Ayollarni ilm-ma'rifatga chorlash orqali ularning o'z huquq va burchlarini anglashi, oilaviy va ijtimoiy hayotda faollashuvi ta'minlangan. Ma'rifatparvarlik g'oyalari asosida ochilgan maktablar, xususan, qizlar maktabi, nafaqat savodxonlikni oshirgan, balki yangi ijtimoiy ongni shakllantirishda asosiy vosita bo'lib xizmat qilgan. Bugungi kunda ham ayollar ta'limi masalasi o'z dolzarbligini yo'qtogani yo'q. Jamiyatda barqaror rivojlanish, sog'lom avlod tarbiyasi va ma'naviy muhitni shakllantirishda ayollarning bilimli, tafakkurli bo'lishi asosiy shartlardan

biridir. Shu bois, tarixiy tajriba va ma'rifiy qarashlarni chuqur tahlil qilish zamonaviy ta'limgizni takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda butun dunyo ayollarini ta'limgizni olishlari uchun keng imkoniyatlardan berilmoxda. Ko'plab davlatlarda gender tenglikni ta'minlash, qizlarning bilim olish imkoniyatlari kengayib, oliy ta'limgizni ayollar ishtirokini oshirishga qaratilgan dasturlar amalga oshirilmoqda. BMT, YuNESKO kabi tashkilotlar ham ayollar ta'limgiziga oid loyihalarni qo'llab-quvvatlamoxda. Shuningdek O'zbekistonda ham ayollar ta'limgizni olishi davlat siyosatlarining asosiy yo'naliшlaridan biridir. O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev ayollarning ta'limgizni olishi va jamiyatdagi o'rnini mustahkamlashga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Ularning rahbarligida xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini ta'minlash, ularning ijtimoiy hayotdagi ishtirokini oshirish bo'yicha qator islohotlar amalga oshirildi. Xotin-qizlar uchun maxsus kvotalar ajratilishi, imtiyozli grantlar va maxsus dasturlar orqali ularning ilm-fan, biznes, texnologiya va boshqa sohalarda faoliyat yuritishi rag'batlanТИrilmoxda. Kam ta'minlangan oilalardan chiqqan qizlar uchun ta'limgizni kreditlari va stipendiyalar ajratilmoqda.

Ma'rifatli ayol yosh avlodga to'g'ri tarbiya bera oladi. Sababi ularning bilim olish ahamiyatini tushuna oladi. Marifatli ayol-jamiyat poydeviridir. O'tgan zamondan ham ayollar ta'limgizni olishi uchun imkoniyatlardan ajratilgan.

Xususan o'rta asrlarda ta'limgizni islam dini qonun qoidalari asosida amalga oshirilgan. Unga ko'ra ayollar va erkaklarga ta'limgizni alohida-alohida berilgan. Ta'limgizni asosan maktablarda, madrasalarda va qorixonalarda berilgan. O'quvchilar yaxshi yoritilmagan xonalarda sholcha va bo'yralarda o'tirib o'qiganlar. Ta'limgiz jarayonida o'quvchilarning soni 10-60 nafargachga bo'lган. Bolalar muktabaga 5 yoshdan qabul qilingan. O'qish jarayonlari esa 5-7 yil davom etgan. Maktablarda kimning qancha muddat o'qishi o'quvchi zehniga va oilasidagi muhitiga bog'liq bo'lган. Ta'limgiz jarayonlari 3 bosqichdan iborat bo'lган. Ta'limgizning birinchi bosqichida arab alifbosi o'rgatilgan. Ikkinci bosqichda "Haftiyak" (quroni karimning 1/7 qismi) o'qitilgan. Uchinchi bosqichda esa "Chorkitob" (Hofiz, So'fi Olloyor, Fuzuliy, Ahmad Yassaviy) kabilalar o'qitilgan. Ta'limgizning o'g'il bolalar madrasalar, qorixonalarda o'qitsa, qiz bolalar muktabdor boyalar tashkil qilgan maktablarda va otinlar qo'lida tarbiya berilgan.[1: 75]

Otinlar-o'z davrining savodli, diniy, dunyoviy bilimlarga ega bo'lган ayollar bo'lган. Otinlardan biri Dilshodi otin hisoblanadi. Uning Dilshodi otin, Barno, Dilshodi Barno kabi taxalluslari bo'lган va (asl ismi- Dilshodi Raxmonquli so'fi qizi bo'lган.) U 1800-yili (hijriy 1215) O'ratega hududidagi Mir Mushoq mahallasida dunyoga kelgan. U o'zi tug'ilgan joyni Istrafshan deb atagan. Uning otasi Raxmonqul shoir bo'lган. 1814-yil O'rategapadagi bolgan janglarning birida vafot etgan. Onasi esa Dilshod 13 yoshida vabo kasalligi sabab vafot etgan edi. 14 yoshida ham onasi, ham otasidan yetim qolib, 90 yoshli buvisi qo'lida ip yigirib kun kechirgan. O'sha davrlarda O'ratega geografik jihatdan qulay bo'lган va unumdon yer maydonlari bo'lган. Shu sabab O'ratega ikki O'rta Osiyo davlatlari o'rtasida talash bo'lган. Qo'qon xon Umarxon 1816- 1817 -yillarda O'rategapani egallab, aholini asirga olgan edi. Ularning ichida 17 yoshli Dilshod ham bor edi. [2;59]

Xonlikdagi ilm-fanga nisbatan e'tibor va yosh Dilshodning she'r yozishiga bolgan iqtidori uning adabiy muhitiga kirib kelishiga olib keladi. Dilshodi Barno Ho'ja Qo'qon mahallasida

masjid imomi Tosh Mahmudga nikohlanadi. Qaynonasi qizlarga maktabdor bo'lib 99 yoshida vafot etgach, qaynonasining o'rniiga Dilshod maktabdorlik qila boshlaydi.[3;4]

Umrining asosiy qismini ilm olish va ilm berish bilan o'tqazadi. O'zining maktabdorlik faoliyati haqida shunday deydi: "51 yil maktabdorlik faoliyatim davomida bir yilda 20 nafardan 40 nafargacha o'quvchiniim bor edi. Madrasa bosqichida 23 ta talabaga, maktablarda 891 qizga ta'lif berganman. Ulardan ¼ qismi sheriyatga qobiliyatli bo'lgan." deydi.[4;78]

Bundan tashqari uning iqtidorli shogirdi Anbar otin ham bo'lib ustozi yo'lini davom ettirgan. Uning erksevar va hurfikr she'rlar, ayollarning jamiyat va oiladagi haq-huquqsiz ahvolini qalamga olgan. Ayollar erkinligi va teng huquqli bo'lishi uchun kurashga da'vat qilgani sabab mutassiblar uni kaltaklashadi. Ko'p o'tmay hayotdan ko'z yumadi. Dilshodi otinning shogirdining hayoti shu tarzda yakun topadi. [5;105] XIX- asrning 80- yillarida Toshkent shahrining o'zida 137 ta o'g'il bola maktabida 4 ming 855, 86 ta xotin-qizlar maktabida 1 ming 324 o'quvchi ta'lif bergan.[6;45]

Iqtidorli Dilshodi Barno yozgan asarlari esa axloqiy muammolar, taraqqiyatparvarlik g'oyalari bilan bog'liq bo'lib, g'azal, muhammas, musaddas, chiston yo'nalishlarida ijod qilgan. Dilshodi otinning 91 ta o'zbekcha, 51 ta tojikcha she'rlari bo'lgan. U "Tarixi muhojiron"(Muhojirlar tarixi) asari va uning 3 ta qo'yozma nusxalari("Tazkirai Barno", "Inson matonati va muhojirlar tarixi", "Barnoning tanlangan asarlari") bizga qadar yetib kelgan. [7;79]

Bu asarlarda o'zaro urushlar, xalqning turmush sharoiti, va ijtimoiy-siyosiy voqeulari aks ettirilgan. Shoira asarlari mazmunida Vatan va inson ozodligi masalari uyg'unlashib ketgan. Bundan tashqari Rossiya imperiyasi tomonidan Turkistonning egallanishi va buning natijasida vujudga keladigan voqealarini to'g'ri tushungan va uning asarlari shu davr uchun muhim yilnomasi bo'lgan. Dilshodi Barnoning bu og'ir kunlar o'tib yaxshi kunlar kelishiga ishongan va – "Bu jabru zulmat albat muvaqqat" degan mazmunli gaplarni aytgan.

"Tarixi muhojiron" asarida XIX asrda Qo'qon xonligidagi tarixiy ijtimoiy-siyosiy voqealarini yorqin aks ettirilgan. Shuningdek Dilshod 1970- yilda Tojikiston "Irfon" nashriyoti "Dilshodi Barno va merosi adabiyy " nomli kitobini bosmadan chiqardi. Bu kitobda A. Muxtorovning so'z boshisi va Dilshodning "Tarixi muhojiron " asari, shoirning tojik va o'zbek tillaridagi she'rlari berilgan.[8;7]

Dilshod asarlarida o'sha davr ayollarining ma'rifatli, erkin, jamiyatning teng huquqli a'zolari bo'lishlariga chorlagan. Bundan tashqari bu asarda Qo'qon va O'rnatuvchi yashagan 30 dan ortiq shoir va shoiralalar ijodi haqida ma'lumotlar keltirilgan. Uning pedagogik qarashlari zamonaviy pedagogika uchun ham muhim ahamiyatga aga bo'lib, ayollarning ta'lif olishi va jamiyatdagi o'rnini mustahkamlashga qaratilgan.

Dilshodi Barno asarlari qo'lyozmalari O'zRes Fa ShI Qo'lyozmalari instituti №1207 inventer raqamida saqlanadi. Bu qo'lyozmalar orasida shoiraning 42 ta g'azali bor. Bularidan 36 tasi o'zbek, 6 tasi tojik tillarda yozilgan g'azallari bor. O'z davrining iqtidorli shoirasi 100 yildan ortiq umr ko'radi. 1906-1907- yillarda Qo'qonda vafot etgan.

#### **Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Kuzikulov I. Qo'qon xonligi tarixi. "Namangan" nashriyoti 2014. B. 75.
2. Dilshodi B. "Tanlangan asarlar" G'afur G'ulom .-Toshkent-1972.B.

3. Dilshod B. "Tanlangan asarlari" / G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent-1972 4- bet.
4. Dilshod "Muhojirlar tarixi" / O'zbek pedagogikasi antologiyasi. Toshkent, "O'qituvchi", 2010.
5. Nishonova N. Buyuk o'zbek ayollari. The Great uzbek women Toshkent-2016.
6. Xalilova Z."Marifatdan mahrum ma'sumlar maqolasi "Tafakkur " 2023-yil 2- son.
7. Qo'qon adabiy muhiti ijodkorlari. Antologiya Tamaddun Toshkent-2022.
8. Dilshodi Barno "Tanlangan asarlari" G'afur G'ulom.T- 1972.B.7.

# O'ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI

**III RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, 10-iyul

**Mas'ul muharrir:**

*F.T.Isanova*

**Texnik muharrir:**

*N.Bahodirova*

**Diszayner:**

*I.Abdihakimov*

O'ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI. III Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2025. – 49 bet.

**Elektron nashr:** <https://konferensiyalar.uz>

**Konferensiya tashkilotchisi:** Scienceproblems Team

**Konferensiya o'tkazilgan sana:** 2025-yil, 10-iyul

**ISBN 978-9910-09-222-0**

**Barcha huqular himoyalangan.**  
© Scienceproblems team, 2025-yil.  
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.